

## **O'QUV MOTIVLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH**

**Toshqo'ziyeva Dildora Shukurjon qizi-**

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

## **LEARNING MOTIVATIONS AND THEIR DEVELOPMENT**

**Toshkoziyeva Dildora Shukurjon qizi-**

Fergana State University, 2nd year master's degree in psychology

**Annotatsiya:** o'quv motivi talabalarning o'qish faoliyatining asosini tashkil etadi. Motiv faoliyatga undovchi kuch hisoblanadi. Motiv va motivatsiya orqali ta'lif faoliyatida rivojlanish va o'sish yuqori bo'ladi. Ushbu maqolada o'quv motivlari va ularning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'quv motivi, motivatsiya, faoliyat, ehtiyoj, faollik, qiziqish, kasbiy motivlar, ijtimoiy motivlar.

Motivlar o'qish – bilish jarayonini boshqaradi, unga faollik kasb etish bilan bir qatorda ta'lifning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Shunday ekan, o'quvchilarning ta'lif jarayonida har tomonlama barkamol shaxs, yetuk malakali kadr sifatida shakllanishada o'quv-biluv motivlari, umuman keng qamrovli motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya shaxs faolligi, xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi muhim omildir. Chunki insonning har xil xatti-harakatlari ostida ushbu xatti-harakatlarga undovchi asoslar, ularning motivatsiyasi yotadi. Shuning uchun ta'lif jarayoniga faqatgina o'quv – biluv motivlarigina emas, barcha keng qamrovli motivlar o'z ta'sir doirasi bilan ta'sir etib turadi. O'qitish - ta'lif jarayoniga undash va uni qo'llab-quvvatlash. Biz ta'lif jarayonida faol qatnashuvchi, o'z qarashlari uchun ma'suliyatni his eta oluvchi shaxsnini tarbiyalashimiz lozim.

O'quv motivlari mohiyati. Motivlar tizimi o'quv faoliyatining harakatga keltiruvchi kuchi-qo'zg'atuvchisi bo'lib, ular o'z tarkibiga bilish ehtiyojlari bilan bog'liq quyidagi singari o'ta muhim jihatlardan iborat:

- maqsadlar;
- qiziqishlar;
- intilish;
- g'oyalar;

Zikr etilgan o'quv motivlari tizimi o'zining mustahkamligi hamda dinamik xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi.

O'quv motivatsiyasining mustahkamligini uning tarkibiga kiruvchi yetakchi ichki motivatsiyalar majmuasi belgilab beradi. A.K.Markovaning e'tiroficha, ijtimoiy motivlar bilish bilan bog'liq motivlarni keltirib chiqaradi. Bu motivlar o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, ba'zan esa uning aksi kabi bir-biri bilan qarama –qarshi shakllarga ega bo'lib, u bolaning yosh xususiyati va unga yaratilgan sharoitlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Olima o'quvchilarning o'qish-bilish bilan bog'liq motiv sifatlarini quyidagi turlarga ajratadi:

Mazmunli – ya'ni ta'lif faoliyati xarakteri bilan bog'liq (anglanganlik, mustaqillik, umumiylilik, o'z o'rniga ega bo'lishlik va boshqalar).

Dinamik - bolaning umumiyligi rivojlanishi bilan bog'liq o'ziga xos psixofiziologik xususiyatlari (qiziqishlarining mustahkamligi, uning iroda va iroda kuchi, qiziqishlarini bir faoliyatdan ikkinchisiga almashtira olish qobiliyati, motivlarining rang-barangligi) bilan bog'liq va boshqalar. O'quv motivi bu ma'lum bir faoliyatga yo'naltirilgan xususiy motivdir. Bu o'rinda faoliyat turi – o'qish, o'rganish, bilish faoliyatidir. O'quv motivlari rivojlanib kelayotgan o'quvchiga nafaqat o'z yo'nalishini belgilab olishni, balki o'zida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solishni hamda emotsiional-irodaviy jihatlarini ham namoyon qilish va rivojlantirishda muhim omil vazifasini o'tab beradi. Shuningdek, u o'quvchining ma'lum bir oraliqdaga o'quv faoliyatini xolisona baholash va undagi sifat o'zgarishlarini aks ettirishning muhim omili vazifasini ham

o‘tashga xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlari singari ta’lim faoliyati motivatsiyalari ham shaxsda mavjud juda ko‘plab quyidagi singari omillar bilan belgilanadi yoki ularga chambarchas bog‘liq bo‘ladi:

ta’lim tizimining xarakteri;

ta’lim muassasasida pedagogik jarayonning tashkil qilinishi;

ta’lim oluvchilarining o‘ziga xos (jinsi, yoshi, bilim darajasi, qobiliyati, o‘qish-bilishga bo‘lgan munosabati, o‘zini baholay olishi, boshqalar bilan hamkorlik qila olish sifatlari) jihatlari;

o‘qituvchi(pedagog) shaxsi va uning o‘quvchilarga hamda pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati;

o‘quv fanining o‘ziga xosligi.

O‘qish motivlari manbalari.

Ta’lim faoliyati ko‘pmotivlilik xususiyatiga ega, chunki ta’lim oluvchi o‘quvchining faollik manbalari xilmoxil va rang-barangdir.

Pedagogikada faollikning uch manbasi ajratiladi.

- ichki;

- tashqi;

- shaxsiy(xususiy).

Ta’lim faoliyatining ichki manbasiga o‘quvchining bilish hamda ijtimoiy (jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan va e’tirof etiladigan yutuqlarni qo‘lga kiritishga bo‘lgan intilishi ) ehtiyojlari kiradi. Ta’lim faoliyatining tashqi manbalari asosan ijtimoiy talablardan iborat. Talablar ijtimoiy odob normalari, muloqot, faoliyat jarayonida jamiyat talablariga amal qilishni taqozo etadi. Jamiyat a’zolarining ta’lim faoliyati jarayonida qiyinchiliklarni yengib o‘tish faoliyatini nazarda tutadi. Imkoniyatlar - bu ta’lim jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq shart-sharoit (maktab, darslik, kutubxona va boshqalarning mavjudligi) lardir.

Shaxsiy manbalar. Sanab o‘tilgan ta’lim faoliyatining faollik manbalari orasida shaxsiy manbalar boshqalariga nisbatan asosiy o‘rinni egallaydi. Shaxsiy (xususiy) manbalarning tarkibiga shaxsning qiziqish, ehtiyoj, hamda ta’lim, shuningdek, boshqa faoliyat turlarida ham o‘zini namoyon etish, ko‘rsatish, o‘zligini anglash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi bilan bog‘liq xatti-harakatlari majmuasi kiradi. O‘quv faoliyatining ichki, tashqi va shaxsiy (xususiy) faollik manbalari uyg‘unligi bevosita ta’lim jarayoni sifati va uning yakuniy natijalariga o‘zining amaliy ta’sirini ko‘rsatadi. Mazkur faollik manbalaridan birining yetishmasligi o‘quv motivlari tizimining nomukammalligiga yoki ular tarkibining buzilishiga olib keladi.

O‘quv motivlari tasnifi.

Yuqorida zikr etilgan faollik manbalari asosida quyidagi motivlar guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Ijtimoiy motivlar (ta’limning ijtimoiy ahamiyatini anglash, uning shaxsni rivojlantirish xususiyatiga egaligini bilish, ta’limning dunyoqarashni o‘stirish, fikr doirasini kengaytirishning zaruriy sharti ekanligini tushunib yetish va boshqalar). Ijtimoiy motivlar shunday motivlarki, bunda bola ta’limni hayotiy zarurat sifatida anglab yetadi va o‘z ustozlaridan rag‘bat olishga intiladi.

Ular ta’lim faoliyati jarayonidagi ichki o‘quv motivi shakliga xos bo‘lmasa-da tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Anglab yetilganlik (bilim olishga bo‘lgan qiziqish, qiziquvchanlik, bilish qobiliyatlarini o‘stirishga bo‘lgan intilish, intellektual faoliyatdan zavq ola bilish va boshqalar).

Shaxsiy (o‘zini hurmat qilish, o‘rtoqlari orasida ajralib turishga bo‘lgan intilish, hurmatga loyiq bo‘lgan shaxslarga taqlid, atrofdagilarning e’tiborida bo‘lishga bo‘lgan intilish singari).

M.V.Matyuxina bular orasidan ikki asosiy motivni ajratib ko‘rsatadi.

I. O‘quv faoliyatining asosida mavjud motivlar:

1) ta’lim mazmuni bilan bog‘liq motivlar:o‘quvchini yangi faktlarni bilish-o‘rganishga, bilimlarni egallahsha, turli vositalar assosida o‘rganilayotgan jarayonning tub mazmun-mohiyatini bilish, anglab yetishga yo‘naltiradi.

2) o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan motivlar: o‘quvchida ta’lim jarayonida turli xarakterdagi topshiriqlarni bajarish paytida intellektual faollik namoyish etishga, tafakkur qilish, mushohada yuritish, shuningdek, ta’lim jarayonida topshiriqlarni bajarish chog‘ida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish, ya’ni bolani natija bilan emas, balki ta’lim jarayonidagi faoliyatning qiziqarriligi bilan band qilib qo‘yish. Keng ko‘lamdagi ijtimoiy motivlar: vatan, jamiyat, ota-onha va pedagoglar oldidagi burch motivlari.

O‘zligini anglash motivlari (ta’limning keljakdagi ahamiyatini his qilish, bo‘lajak kasbiy faoliyatga o‘zini tayyorlash va b.) va o‘z-o‘zini takomillashtirish, rivojlantirish ( ta’lim asosida o‘z shaxsini kamol toptirish).

Tor doiradagi xususiy motivlar: maqtovga sazovor bo'lish, yaxshi baho olishga intilish, tengqurlari orasida ajralib turish (xotirjamlik va farovonlik motivsiyasi), birinchi o'quvchi bo'lish, o'z tengqurlari orasida munosib o'ringa ega bo'lish istagi (istiqbol motivatsiyasi).

Salbiy motivlar: ota-onasi, o'qituvchilar, tengqurlari orasidagi ko'ngilsizliklardan qochish (ko'ngilsizliklardan qochish motivatsiyasi). A.K. Markovaning fikriga ko'ra, motivlar sirasiga asosan bilish-anglash hamda ijtimoiy motivlarni kiritish mumkin. Agar ta'lim jarayonida o'quvchilarda o'quv fani mazmunini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lsa, u holda bolada bilish motivlarining mavjudligini e'tirof etish mumkin. Agar o'quvchida fanga nisbatan atrofdagilarga bo'lgan qiziqish ustun bo'lsa, demak, unda ijtimoiy motivlar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bilish motivlariga bolaning ta'lim jarayonidagi o'zini rivojlantirishga qaratilgan boshqalar bilan hamkorligi, hamjihatligi, noma'lumni, yangilikni bilishga bo'lgan intilishlari nazarda tutiladi.

Yanada kuchliroq tashqi muhit bilan belgilanadigan quyidagi motivlar mavjud:

ta'limning majburiy xarakterga egaligi;  
ta'lim jarayonining kundalik odatiy holat ekanligi;  
ta'limning shaxsiy manfaatlar omili ekanligi;  
diqqat markazda, e'tiborda bo'lishga intilish.

Biz fikr yuritayotgan motivlar ta'lim jarayoni natijalari va uning xarakteriga o'zining salbiy ta'sirini ham o'tkazishi mumkin. Ayniqsa, o'quvchining ta'lim motivlari maqtov eshitish yoki moddiy manfaatdorlik asosiga qurilganligi tashqaridan qaraganda yaqqol namoyon bo'lsa bu ta'sir kuchli bo'ladi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning barcha motivlari orasida ichki ta'lim motivatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

A.K. Markovaning fikriga ko'ra, bilish va ijtimoiy motivlar turli xil darajaga ega.

Bilish motivlari darajalari:

Keng ko'lamli bilish motivlari(yangi bilim, fakt, hodisa va qonuniyatlarni o'zlashtirishga qaratilgan);  
O'quv-bilish motivlari(bilimlarni o'zlashtirish yo'llarini hamda mustaqil ta'lim olish usullarini o'zlashtirishga qaratilgan);

Mustaqil ta'lim motivlari (qo'shimcha bilimlarni egallash asosida o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish borasida o'z shaxsiy dasturiga ega bo'lish).

Ijtimoiy motiv darajalari:

keng ko'lamli ijtimoiy motivlar (burch va majburiyat, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish);  
tor doiradagi yoki xususiy ijtimoiy motivlar (atrofdagilarga nisbatan ma'lum bir tarafga mansub bo'lishlikka intilish hamda ularning e'tiborini qozonishga harakat qilish);  
ijtimoiy hamkorlik motivlari(boshqa insonlar bilan hamkorlik qilishning barcha vositalarini ishga solishga intilish).

A.K. Markova ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonida turli motivlar namoyon bo'lishi bir xil xususiyatga ega emas. Masalan, keng ko'lamdagagi ijtimoiy motivlar ma'lum bir qaror qabul qilish jarayonida, o'qituvchidan qo'shimcha ma'lumotlar olish chog'ida, o'quv-bilish motivlari masalaning yechimini topishga qaratilgan mustaqil faoliyat, savollarga javob berish yoki o'qituvchiga savol berish jarayonida, mustaqil ta'lim motivlari esa bevosita mustaqil ta'lim faoliyati chog'ida, shuningdek, o'quvchining ta'lim tarkibini o'zgartirishga qaratilgan takliflarini ifodalash paytalarida namoyon bo'ladi.

Keng ko'lamdagagi ijtimoiy motivlar o'quvchining o'z burch va mas'uliyatini his qilishi bilan bog'liq xattiharakatlarda o'z aksini topadi. Ijtimoiy hamkorlik motivlari jamoat ishlaridagi faoliylikka intilishi va uni samarali tashkil qilish yuzasidan bergen takliflaridan bilinib turadi. Ta'lim motivlari o'quv motivlarining kuchi va ishonchli-mustahkamligi bilan tasniflanadi. Ta'lim motivlari kuchi o'quvchining bilim olish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan intilishilari, motivning ehtiyoji, uning davomiyligi bilan belgilanadi. Motiv kuchi ham fiziologik, ham psixologik omillarga bog'liq. Fiziologik omillarga motivatsion qo'zg'atish kuchi kirsa, psixologik motivlarga o'quv-anglash faoliyatining natijalari, uning mohiyatini anglab yetish, ma'lum ma'nodagi ijod erkinligi kabilalar kiradi. Bundan tashqari, motivlarning kuchini bolalikda kuchliroq namoyon bo'ladigan emotsiyalar ham belgilab beradi. O'quv motivlarining mustahkamligi deyilganda butun ta'lim faoliyati jarayonida o'quvchining turli ta'limiy topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladigan iroda kuchi hamda uning o'quv materiallarini o'zlashtirish, esda saqlab qolish va amalda ulardan foydalana olish

qobiliyatlar nazarda tutiladi. Mohiyatan olib qaraganda, o'quvchining o'zini ta'lif olishga ongli yo'naltira olishi, maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilay bilishi va ularga amal qilishi anglaniladi.

O'quv motivlarining quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

a) qo'zg'atuvchi funksiya o'quvchi motivlari energetikasi, boshqacha aytganda, motiv o'quvchining faoliyati va o'zini tutishidagi faolligini ta'minlab beradi.

b) yo'naltiruvchi funksiya o'quvchi energiyasi, maqsad va vazifalarining yo'naltirilgan obektini ko'rsatadi, chunki o'quvchi ta'lif jarayonida o'z faoliyatini konkret bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltiradi. Yo'naltiruvchi funksiya motiv mustahkamligi bilan chambarchas bog'liq.

v) tartibga soluvchi funksiya bolaning xulqi va faoliyatini tartibga solish, ularning xarakterini belgilash vazifasini bajaradi. Bunda mazkur funksiya ijtimoiy motivlar bilan xususiy motivlar orasidagi muvozanatni tartibga soladi. Vazifa (funksiya) ning bu shaklida barcha motivlar baravar ishtirok etadi. Tartibga solishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad qay bir motiv aynan qaysi o'rinda ko'proq samara berishini belgilab berishdan iborat.

Yuqorida e'tirof etilgan funksiyalar bilan bir qatorda motivning rag'batlantiruvchi, boshqaruvchi hamda tashkillashtiruvchi, tarkibli, ma'no anglatuvchi, mazmun kasb etuvchi, nazorat qiluvchi, himoyalanuvchi funksiyalari ham mavjud.

Aslida qiziqish juda katta va keng ko'lamdag'i tushunchalarni qamrab oladi. Shu bois ham ta'lif jarayonida yuzaga keladigan yoki namoyon bo'ladigan qiziqishning o'zini bir necha tarkibiy qism hamda turlarga bo'lib o'rganish zarurati mavjud. A.K. Markovaning ta'kidlashicha, qiziqishni rejalashtiruvchi, natijali, mazmunli, samarali, o'quv-biluv anglashga qaratilgan, o'zgartiruvchi kabi turlarga bo'lish mumkin.

Qiziqish (lat.interesum - muhim ahamiyatga ega bo'lmok ) - shaxsning muayyan narsa yoki hodisaga ega bo'lishga, bilishga aktiv va barqaror yo'nalishidan iborat individual xislati. Qiziqish mazmuni, hajmi, teranligi va barqarorligiga qarab turlicha bo'ladi. Qiziqish har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va shakllantirishning muhimligi muammolar ko'pgina olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. ularning ishlarini tahlil qilish asosida S.M.Bondarenko ta'lif, bilim olish jarayonining o'quvchi uchun qiziqarli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadigan omillarni ajratib ko'rsatadi. Ta'lif mazmuniga hamda bilim olish jarayoniga nisbatan bo'lgan qiziqishlarni o'quvchilarda shakllantirishda ularning bilim olish jarayonida mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni namoyon etishlariga ahamiyat qaratiladi. Ta'lif metodlari qanchalik faol bo'lsa, o'quvchida bilim olishga bo'lgan qiziqish shunchalik ortib boradi. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan mustahkam va ishonchli qiziqishni shakllantirishning asosiy vositasi - o'quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlar mazmuni, murakkablik va qiziqarlilik darajasi bilan belgilanadi. Savol tug'iladi. Nima uchun o'quvchilarda, aynan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda atrofdagi real voqe'liliklar, hodisa va predmetlardan ko'ra to'qima obrazlar, xayoliy voqealar, mavhum tushunchalar ko'proq qiziqish uyg'otadi? Buning asosiy sababi shundaki, ular real voqe-hodisa va predmetlarning asl mohiyatiga tushunmaydi. Ularni bolalar o'z ongida to'liq aks ettira olmaydi. Bolalar uchun ma'lum hayotiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlarini tomonidan yoki ular uchun to'qib chiqarilgan voqe-hodisalar ko'proq tushunarli. Bu esa ularda qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, ertaklarda mavjud "Yalmog'iz kampir" obrazini ular istalgan darajada vahshiy ko'rinishda tasavvur qilishlari mumkin. Ular uchun insonning fiziologik-genetik rivojlanish qonuniyatiga bo'ysunishi umuman yot narsa. Bundan tashqari qachonki o'quvchi ma'lum bir savol va topshiriqni mustaqil izlanish, aktiv faoliyat bilan amalga oshirsa va to'g'ri yechimni topa olsa, ana shundagina bolada bilim olishga bo'lgan chinakam qiziqish shakllanadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bakshaeva N. A. Talabalar motivatsiyasi psixologiyasi / N. A. Bakshaeva, A. A. Virbitskiy // M.: Logotipler, 2006. - 184 b. ;
2. Volodina K. A. Talaba-psixologlarni kasbiy tayyorlash xususiyatlari / K. A. Volodina // Zamonaviy psixologiya: II stajyorning materiallari. ilmiy konf. (Perm, 2014 yil iyul). - Perm: Merkuriy, 2014. - S. 39-41;
3. Gaidar K. M. Universitetlarda professional psixologlarni tayyorlash: qarama-qarshiliklar va muammolar / K. M. Gaydar // Pedagogika fanlari. - Izvestiya VSPU, No 1. - Voronej, 2014. - P. 92-95;

- 
4. Gerasimova A. S. Mahalliy psixologiyada tarbiyaviy motivatsiya nazariyasi / A. S. Gerasimova. - URL: [http://www.ipras.ru/cntnt/rus/dop\\_dokume/mezhdunaro/nauchnye\\_m/razdel\\_2\\_p/gerasimova.html](http://www.ipras.ru/cntnt/rus/dop_dokume/mezhdunaro/nauchnye_m/razdel_2_p/gerasimova.html) (kirish sanasi: 15.03.2015);
  5. Juchkova S. M. Ma'noli yo'nalishlar hayotning ma'nosi fenomenining sub'ektiv komponentlari sifatida / S. M. Juchkova. - URL: <http://sibac.info/13182> (kirish sanasi: 17.02.2015);
  6. Ivannikov V. A. Psixologlarni tayyorlash muammolari / V. A. Ivannikov // Vopr. psixologiya, 2006. - № 1. C 48-52;
  7. Ilyin E. P. Motivatsiya va motivlar / E. P. Ilyin // - Sankt-Peterburg.: Peter, 2002. - 512 p.
  8. Kilinskaya N. V. Talaba-psixologlarning kasbiy rivojlanishi muammosiga [Matn] / N. V. Kilinskaya // Zamonaviy psixologiya: xalqaro materiallar. ilmiy konf. (Perm, 2012 yil iyun). - Perm.: Merkuriy, 2012. - S. 19-21;
  9. Korjova E. Yu. Inson hayoti yo'nalishlari psixologiyasi // E. Yu. Korjova.- Sankt-Peterburg.: RKhGA, 2006. - 384 b.;
  10. Krimova O. S. Talaba-psixologlarning kasbiy shaxsi / O. S. Krimova, O. A. Suknina // - Orenburg.: FGBOU VPO "Orenburg davlati. Univ., 1014 - 4 b.
  11. Leontiev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxsiyat. / A. N. Leontiev // -M:. Politizdat, 1975. - 375 b.;
  12. Leontiev D. A. Ma'no psixologiyasi: semantik haqiqatning tabiat, tuzilishi va dinamikasi // D. A. Leontiev - 2-chi, tuzatilgan. ed. — M.: Ma'no, 2003. — 487 b.;
  13. Leontiev D. A. Hayotning mazmunli yo'nalishlari testi (SJO) // D. A. Leontiev. - 2-nashr. - M:. Ma'nosi, 2000. - 18 b.;
  14. Melamed D. A. Talabalarning ta'lim va kasbiy motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari / D. A. Melamed. - URL: <http://psyedu.ru/journal/2011/2/2116.phtml> (kirish sanasi: 1.04.2015);
  15. Sapogova E. E. Inson taraqqiyoti psixologiyasi / E. E. Sapogova // - M.: Aspect Press, 2005 - 460 b.